

**INGLIZ TILI O`QITISH METODIKASI VA INTERFAOL O`YINLARDAN
FOYDALANIB DARSNI MAZMUNLI TASHKIL QILISH****Akbarova Iroda***401-guruh nemis tili va adabiyoti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz tili o`qitish metodikasi haqida, bugungi kunda ingliz tilini o`rganish muhim vazifalardan biriga aylanib qolayotganligi haqida, chet tillarini o`rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko`plab imkoniyatlar yaratib berilayotganligi haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *ingliz tili, o`qitish, o`rgatish, qiziqish, talab, vazifa, takomillashtirish, chora-tadbir.*

Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 60 foizi ikki yoki undan ortiq tillarda so`zlasha olishi barchaga ma'lum. Jahonda globallashuv jarayonlarini tezlashtirish, erkin bozor munosabatlariiga o'tish va ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni joriy etishning rag`batlantirilishi «lingvistik kapital»ga, ya'ni chet tillarni (ayniqsa, ingliz tilini) mukammal egallagan mutaxassislarga ehtiyojni kuchaytirmoqda.

Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yerosti va yerusti tabiiy boyliklari, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki, birinchi navbatda, o`zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. Shu boisdan respublikamizda sog`lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirish maqsadida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish borasida miqyosi va ko`lamiga ko`ra ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O`zbekistonning ko`pmadaniyatlari va ko`ptilli «landshafti» shaxsnинг til kompetentligini rivojlantirishga samarali asos bo`lmoqda. Ingliz tili ta'limi yoki N.Galskovaning ta'biri bilan aytganda, «Lingvomadaniy ta'lim» yosh avlodning yangi va foydali axborot (informatsiya) olish, yetkazish hamda interaksiyaga kirishish imkoniyatlari va sarhadlarini yanada kengaytiradi. 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PQ-1875-sen qarorida yosh avlodni chet tillarga o`qitish, shu tillarda erkin so`zlasha oladigan mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng ko`lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun imkoniyatlar yaratish bosh maqsad etib belgilangan. Ta'lim maqsadi ijtimoiy-pedagogik va lingvodidaktik tushuncha sifatida ingliz tili o`qitishga tatbiqan quyidagicha ta'riflanishi mumkin: umumta'lmiy yo`nalishdagi o`quv predmetlaridan bo`lmish ingliz tilini o`rganishga jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasi shaklidagi ta'lim mazmunini belgilash, o`qitish jarayonini tashkil etish va muayyan natijalarga erishishni oldindan aniqlash vositasidir. Maktabda ingliz tili nima uchun o`rganiladi? savoliga javob tariqasida qo'llanadigan termin-tushunchadir. Umumta'lim maktablarida o`quvchilarga ingliz tili (1) amaliy maqsad, (2) umumta'lmiy maqsad, (3) tarbiyaviy maqsad va (4) rivojlantiruvchi maqsadda o`rgatiladi. Ingliz tili o`qitishning amaliy maqsadiga erishish yo`lida umumta'lim maktab kursida ingliz tili o`rgatishning yakuniy amaliy maqsadi - tinglab tushunish va o`qish, ya'ni chet tilda tinglab va o`qib axborot olishdir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rinni egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir. Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Shu boisdan ingliz tilini oson va qiziqarli qilib o`rgatsih maqsadida turli xil Interfaol o`yinlardan foydalanib dars o`tish metodi ham qo`llanilmoqda. Bugungi kunda maktablarda interfaol o`yinlar orqali dars o`tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o`yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o`yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o`yin zamirida umumiyligini qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o`yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O`yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bermalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o`yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o`yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o`yin o`ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi [2]. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish"
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi «CHet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875-soni qarori.
3. Xoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. T., - 2003